



## ONA TILI O'QITISH DARSLARIDA KASBIY KOMPETENTLIK VA KASBIY KOMPETENSIYAGA ALOQADOR INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<sup>1</sup>Oqmonova Sevinchoy Olloyor qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tili guruhlarida o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<sup>2</sup>Atiyazov Sapparbay Jumamuratovich

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili kafedrasida assistenti  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7976506>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> May 2023

Online: 27<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

AKT, kasbiy kompetensiya, pedagogik kompetentlik, innovatsion texnologiya, kuzatuvchanlik prinsipi.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ona tili o'qitish darslarida kasbiy kompetentlik va kasbiy kompetensiyaning innovatsion texnologiyalar bilan amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari qalamga olingan bo'lib, bunda, pedagogik qobiliyatlarning amaliyotidan o'quvchi-yoshlarning faolligini oshirish ko'zlangan deyish mumkin. Shuningdek, maqolada o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi davomida axborot texnologiyalaridan foydalanishining ahamiyati ham ochib berilgan.*

Pedagogik qobiliyatlarning shakllantirilishi kompetentlik tushunchasi bilan yaxlitlik va aloqadorlikni birlashtirish orqali hosil bo'ladi. Bu borada bo'lajak o'qituvchi o'z tajribalarida turli holatlarni boshidan kechirgani holatda xizmat faoliyatining namunadagidek yo'lga qo'yishi ehtimoliyligi haqiqatga yaqin. Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy jihatdan kompetentligini oshirishda bilim, ko'nikma va malaka degan tushunchalar bosh omil vazifasini bajaradi. Bo'lajak o'qituvchi ma'naviy kompetentligini rivojlantirish yo'llaridan biri muloqotning to'g'ri ravishda yo'lga qo'yilishidir. Muloqot kommunikativlik qobiliyati bo'lajak o'qituvchini har qanday vaziyatda ham har qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar o'zini tuta bilishi, turli ijtimoiy vaziyatlarni murosa yo'li bilan baholashiga yordam beradi.

"Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir. Uni quyidagi bosqichlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Maxsus ma'lumot olish.
2. Amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish.
3. Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o'tish.
4. Kasbiy tajribaga ega bo'lish.
5. O'z sohasida professionallikka erishish.
6. Tajriba to'plash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi".[1] Haqiqatdan ham, kasbiy kompetensiya va kompetentlikning dars tizimidagi ahamiyati katta sanaladi. Bunda ona tili o'qitish darslarida pedagogik qobiliyatlarning to'la namoyon bo'lishida, o'quvchilarga o'rgatilayotgan yangi mavzuning dolzarbligini tushuntirish, shuningdek, ona tili fani yuzasidan maxsuslashtirilgan bilim olishlariga imkoniyat yaratish katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, ona tili o'qituvchilari



o'quvchilarning yosh davriga ko'ra ular bilan amaliy jihatdan ishlashadi. Misol uchun: Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ona tili darslarida egalla inishi lozim bo'lgan amaliy bilim va ko'nikmalarning real tarzda amalga oshirilishida Xitoy davlati tajribalaridan qo'llash ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqori sinf o'quvchilari bilan amaliy ishlashishda yurtimizda joylashgan elchixonalar xizmatchilari, turistlari bilan uchrashuvlar o'tkazish yaxshi samara beradi. Buning boisi dhundaki, ular tarjimon bn ishlashishda o'z fikrlarini to'g'ri yetkazib berish, tushuntira olish qobiliyatlarini ham qayta sayqallashtirib olishadi. O'qituvchilarning dars tizimiga namunali tarzda tayyorlanib kelishi, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish va muhabbat o'yg'otishda malaka oshirish, maxsus kurslarda AKT yuzasidan qayta tayyorlanish yoki innovatsion ta'lim shakllari bilan ishlashish kabilarda o'qituvchi o'z ustida ishlashi oqibatida o'qituvchining pedagogik kompetentligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ona tili o'qituvchilarining darsni sifatli va samarali tashkil qilishi ichun lozim bo'lgan tajribalar to'plash, o'z sohasida professionallikka erishish kabilar ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

“Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. “Innovatsion pedagogika” termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi”.[2]

Pedagogik jarayonda shaxsning ichki qobiliyati va uni rivojlantirish pedagogik qobiliyatlardan unumli foydalanish bilan barobardir. Bunda bo'lajak o'qituvchi kelajakdagi olib boradigan ish faoliyatida yo'naltiruvchi shaxs sifatida bo'lishini unutmagan holda, bu boradagi vaziyat va holatlarga o'zini tayyorlab borishi kerak. Shuningdek, pedagog o'z o'quvchilarining ichki qobiliyatlarini, ichki imkoniyatlarini bilishi, ularga to'g'ri yo'l berishi kerak. O'qituvchi qobiliyatida manashunday holatlar bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy kompetentlikning yana bir omili voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatidir. Bunda kompetentlikning ma'naviy jihatdan boyligi, o'qituvchining vaziyatlarni to'g'ri bahoalsh va sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga to'g'ri munosabat bildirish hamda ularni oldindan ko'ra bilishda yuzaga keladi. Shuningdek, eshitish va his qilish qobiliyatlari bilan birga mantiqiy fikrlay olish qobiliyatlari ham pedagogik qobiliyatlarining, kompetentlarning ma'naviy jihatdan alqoadorligida yaxshi namoyon bo'ladi. Bunda mahorat va pedagogik mahorat, mashg'ulotlarni ta'lim berish asnosida o'zaro rivojlantirish ijodiy qobiliyatlarni metodik jihatdan baholash va yillar barobarida amalga oshiriladigan tajribalarga suyanish yaxshi natijalarni ta'minlab beradi.

“Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubxasiz, yangicha, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o'quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi. Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o'z-o'zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo'ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga



yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega".[3] Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy kompetentligini oshirishda kuzatuvchanlik qobiliyati katta yordam beradi. Bu ham o'z o'rnida kompetentlikning oltin qoidasi sifatida baholanadi. Mehnat va amalga oshirilayotgan mehnat tajribalaridan fudalanib, o'quvchi-yoshlarning mustaqil faoliyatini tashkil etish bilan o'qituvchining o'quv jarayoniga pedagogik kompetentlikka ma'naviy bilim va ko'nikmalarini singdirsa kutilgan natijalar oqlanishi mumkin. O'qituvchi esa o'z o'quvchilarining mustaqilligini ta'minlash, faoliyat yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish ya'ni, muhit, holat va sun'iy atmosfera yaratib berish ham o'z samarasini ko'rsatadi. Bunda mustaqil faoliyat o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini ijodiy jihatdan rivojlantirish, o'z o'zini nazorat qilish, o'z g'oyag'arining amaliyotini ta'minlash kabilarda boshlang'ich ko'nikma vazifasini bajaradi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy jihatdan kompetentligini rivojlantirishning yo'llari shunday holatlarda namoyon bo'ladi.

### References:

1. Tojiboyeva Gulmira Rifovna, Pulatova Dildora Turgunovna. "Pedagogik kompetentlik: Nazariya va amaliyot" maqola. Academic research in educational sciences - 2020.
2. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694-6701.
3. Baykabilov Userbay Alimxanovich "Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari" maqola. Science and Education" Scientific Journal - 2020